PSIXOLOGIYA ILIMLERI

O‘SMIR YOShDAGI O‘QUVChILAR TAFAKKURINING ShAKLLANIShIGA TA’SIR ETUVChI IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR

Djolımbetova Miuagul Madiyarovna – *psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
dj_miuagul@mail.ru
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

Джолымбетова Миуагуль Мадияровна – *доктор философии по психологическим наукам, доцент*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

THE IMPACT OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS ON THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE THINKING IN ADOLESCENTS

Djolimbetova Miuagul Madiyarovna – *Doctor of Philosophy in Psychological Sciences, Associate Professor*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: o‘smirlik davri, tafakkur shakllanishi, ijtimoiy-psixologik omillar, rasmiy operatsiyalar, demokratik tarbiya stili, Raven matrisasi, ijtimoiy-kognitiv dissonans, raqamli media, metakognitsiya.

Rezyume. Maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilar tafakkurining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar nazariy va empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Maqolada J.Piaje va L.Vygotskiy nazariyalari, shuningdek, zamonaviy neyropsixologiya hamda ijtimoiy-konstruktivizm g‘oyalariga tayanilgan holda, o‘smirlar kognitiv rivojlanishida oila dinamikasi, tarbiya uslublari, tengdoshlar bilan muloqot va raqamli muhitning o‘rni yoritib berilgan. D.Baumrind, L.Steinberg hamda P.Greenfield kabi olimlarning tadqiqot natijalari asosida demokratik tarbiya stilining mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi afzalliklari va me’yordan ortiq raqamli media iste’molining tahliliy fikrlashga salbiy ta’siri isbotlab berilgan.

Ключевые слова: подростковый возраст, формирование мышления, социально-психологические факторы, формальные операции, демократический стиль воспитания, матрица Равена, социально-когнитивный диссонанс, цифровые медиа, метапознание.

Резюме. В статье на основе теоретических и эмпирических исследований анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование мышления учащихся подросткового возраста. Опираясь на теории Ж.Пиаже и Л.Выготского, а также на идеи современной нейропсихологии и социального конструктивизма, раскрывается роль семейной динамики, стилей воспитания, общения со сверстниками и цифровой среды в когнитивном развитии подростков. На основе результатов исследований таких ученых, как Д.Баумринд, Л.Стайнберг и П.Гринфилд, доказываются преимущества демократического стиля воспитания в развитии логического мышления и негативное влияние чрезмерного потребления цифровых медиа на аналитическое мышление.

Key words: adolescence, development of thinking, socio-psychological factors, formal operations, authoritative parenting style, Raven's matrices, socio-cognitive conflict, digital media, metacognition.

Summary. This article analyzes the socio-psychological factors influencing the formation of thinking in adolescent students based on theoretical and empirical research. Grounded in the theories of J.Piaget and L.Vygotsky, as well as modern neuropsychology and social constructivism, the study highlights the roles of family dynamics, parenting styles, peer interaction, and the digital environment in adolescent cognitive development. Based on empirical findings by scholars such as D.Baumrind, L.Steinberg, and P. Greenfield, the article proves the advantages of authoritative parenting in fostering logical reasoning and demonstrates the negative impact of excessive digital media consumption on analytical thinking.

Kirish. O‘zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan umuminsoniy qadriyatlarni e’tirof etadigan ma’naviy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash dolzarb muammolaridan sanaladi.

J.Piajening ta’kidlashicha «Ijtimoiy hayot uch narsaning ta’siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi», bu borada o‘zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z -o‘zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi [1:12].

O‘smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o‘rgana boshlaydi. O‘smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko‘tarila olishi o‘quv materiallarni shunchalik tez, chuqur egallash va uning intelektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O‘smirlik davri yuqori darajadagi intelektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik nihoyatda qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o‘z layohatlarini namoyish etish, shuningdek ulardan yuqori baho olish extiyojining mavjudligi bilan belgilanadi.

Asosiy qism. O‘smirlik davri (11–17 yosh) kognitiv rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichidir. J.Piaje nazariyasiga ko‘ra, bu davrda rasmiy operatsiyalar bosqichi boshlanadi: o‘smir aniq ob’ektlardan mavhum, abstrakt tushunchalar, gipotetik-deduktiv mulohazalar va metakognitsiya yani o‘z fikrini tahlil qilish darajasiga o‘tadi. Biroq, zamonaviy neyropsixologiya va ijtimoiy-

konstruktivizm shuni koʻrsatadiki, biologik pishib yetilish prenfrontal bosh miya poʻstlogʻi rivojlanishi kognitiv oʻsish uchun faqat imkoniyat yaratadi, bu imkoniyatning roʻyobga chiqishi esa bevosita ijtimoiy-psixologik omillar determinentlarga bogʻliq [1:19].

Asosan, mikro-ijtimoiy omillarda oila dinamikasi va kognitiv stimulyatsiya - oilada oʻsmir kognitiv xaritasining birlamchi modelini yaratadi. Bu yerda ikki asosiy sub-omil ajralib turadi. Birinchisi, ota-ona tarbiya stili yani avtoritar muhitda oʻsgan oʻsmirlarda konformist yani tayyor shablonlarga tayanuvchi va ijrochi tafakkur shakllansa, demokratik stil tahliliy, tanqidiy va mustaqil fikrlashni ragʻbatlantiradi. Ikkinchidan, muloqot strukturasi bu borada refleksiv muloqot yani ota-ona va oʻsmir oʻrtasidagi sabab-oqibat aloqalarini muhokama qilishga qaratilgan savol-javoblar oʻsmirda kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi.

Tadqiqotlarga qaraganda, AQSH psixologlari Baumrind va Steinberg tomonidan oʻtkazilgan uzluksiz tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, demokratik tarbiya muhitidagi oʻsmirlar muammoli vaziyatlarni hal qilish va abstrakt mantiqiy testlarda masalan, Raven matrisasida avtoritar oila farzandlariga qaraganda 23-28% yuqori koʻrsatkich qayd etgan [3:95].

Hozirda har bir millatning milliy xususiyatlari asosida tarbiyalanayotgan bola, kelajakda dunyo miqyosida oʻz oʻrnini egallashda katta qiyinchiliklarni ham engib oʻtadi. Masalan, toʻgʻilganidan boshlab bola oilasida oʻziga «norma»ni shakllantirar ekan, u boshqa millatning oʻzaro milliy xususiyatlarini, urf odat, manaviyat va madaniyatini tan olishda «ikkinchi qatlam» deya qabul qiladi yoki uni oʻz milliy xususiyatlari bilan solishtirib, taqqoslab oʻrganadi.

Haqiqatdan ham, har bir oʻquvchining axloqiy tushunchalarni qanday oʻzlashtirganini aniqlamay ular bilan yakkama-yakka munosabatga kirishish mumkin emas. Bu oʻrinda, farzandini komil inson boʻlib kamol topishni ezgu niyat qilgan ajdodlarimizning milliy ma’naviy qadriyatlarni bola ongiga singdirib, uning kelajak rivojini ta’minlashga oʻz hissasini qushganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, bolaning ijobiy xis-tuygʻulari buyuk ijodiy faoliyatga sabab bo`lgani kabi, Vatanga, ilmga, sa`natga, mexnatga, ijodiy faoliyatga qaratilgan ehtiroslar yutuq va gʻalabalarga olib boradi. Bu boʻlsa, mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi uning aqliy faoliyat usullarini shakllantirganligidan darakdir [2:11]

Chunki tafakkur bilimlarni oʻzlashtirish voqeylikni bilish, voqea xodisalarni oʻziga oʻrnatilgan “norma”dan kelib chiqib analiz-sintez qilish, umumlashtirish asosida aqliy faoliyatini amalga oshirishda ifodalanadi. Tafakkur insonning barcha bilish jarayonlarida ishtirok etib shaxsning bilish jarayonlarining birligini ta’minlaydi.

Oʻsmirning kattalarga beradigan savollari koʻpgina mazmunli, chuqur oʻylangan va aynan oʻsha masala yuzasidan boʻladi. Bu yoshdagi bolalar turli gepotezalar tuza oladilar, ta’miniy fikr yurita oladilar, tadqiq oʻtkaza oladilar hamda ma’lum bir masala boʻyicha al’ternativlarni taqqoslay oladilar. Oʻsmir tafakkuri koʻpincha umumlashtirishga moyil boʻladi. Bu amaliy tafakkur tizimiga tadbirkorlik, tejamkorlik, hisoblilik, yuzaga kelgan muammolarni tez echa olishlik kabi aqliy sifatlar kiradi. Bunda quyidagi sifatlar boʻlgan taqdirdagina amaliy tufakkurini rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni boshlang’ich sinfdanoq boshlab rivojlantirib borish nihoyatda muhim. Oʻsmirlik davrida ishbilarmonlik sifatini oʻquvchilar oʻz-oʻzini boshqarishni yoʻlga qoʻyish shuningdek, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok ettirish orqali rivojlantirish mumkin

L.Vygotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepstiyasiga koʻra, oʻsmir oʻz tengdoshlari bilan muloqotda kognitiv toʻqnashuvlarga uchraydi deb keltiradi. Tengdoshlar orasida oʻz oʻrnini topish ehtiyojidan kelib chiqib, oʻsmir oʻz mulohazalarini boshqalar nuqtai nazari bilan solishtirishga majbur boʻladi. Oʻsmirlik egotsentrizmi aynan tengdoshlar bilan oʻzaro ijtimoiy va emotsional toʻqnashuvlar natijasida desentratsiyalanadi va boshqalar nuqtai nazarini qabul qilish boshlanadi [2].

"Ijtimoiy kognitiv dissonans" eksperimentlarda aniqlanishicha, muammolarni juftlikda yoki kichik guruhlarda muhokama qilgan oʻsmirlarning mantiqiy mulohaza yuritish tezligi va aniqligi individual ishlovchilarga nisbatan 1.5 baravar yuqori boʻlgan. [4,5]

Zamonaviy ijtimoiy psixologik omillardan biri bu – raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlardir. Bu omil tafakkurga ikki yoqlama ta’sir koʻrsatadi. Birinchidan, pozitiv ta’sir – gipertekstual muhit kognitiv moslashuvchanlikni va axborotni parallel qayta ishlash tezligini oshiradi. Ikkinchidan, negativ ta’sir - ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa va tez almashinuvchi axborot oqimi chuqur tahliliy fikrlash hamda uzoq muddatli diqqatni jamlash mexanizmlarini susaytiradi.

Kaliforniya universiteti psixologiya fanlari professori, Kognitiv rivojlanish va raqamli media markazi direktori Patricia M.Greenfield tadqiqotlari natijalariga koʻra, kuniga 4 soatdan ortiq vizual-raqamli mediadan foydalanuvchi oʻsmirlarda mantiqiy matnlarni tahlil qilish va uzoq zanjirli sabab-oqibat bogʻliqliklarini aniqlash darajasi 34% ga pastlagan. U bir necha oʻn yillar davomida texnologiyalarning inson intellektual rivojlanishiga ta’sirini empirik tajribalar orqali oʻrgangan [6:69].

Haqiqatdan ham, miya neyronlari qaysi faoliyat turini koʻp takrorlasa, oʻsha sohaga moslashadi. Internet va vizual media miyani tezkor axborot izlashga va qisqa ma’lumotlarni tutib qolishga moslashtiradi. Biroq kitob oʻqish va murakkab masalalarni yechish uchun mas’ul boʻlgan chiziqli va uzluksiz fikrlash neyron zanjirlari ishlamagani sababli zaiflashadi.

Xulosa. Demak, hozirgi kunda oʻsmirlarda tafakkur shakllanishi faqat nevrologik yoki biologik jarayon emas, balki ijtimoiy-psixologik determinatsiyalashgan hodisadir. Bunda demokratik oila muhiti va Sokratik muloqot rasmiy-mantiqiy va tanqidiy fikrlashning asosiy drayveri hisoblanadi. Bundan tashqari tengdoshlar bilan interaktiz muloqot kognitiv egotsentrizmni kamaytiradi va koʻp oʻlchamli multiperspektiv tafakkurni shakllantiradi. Ayniqsa, raqamli muhitning salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun oʻsmirlarda metakognitiv koʻnikmalarni va axborot gigiyenasini shakllantirish mumkin boʻladi.

Adabiyotlar

1. Piaget J. Intellectual evolution from adolescence to adulthood. // Human Development, 1972, 15(1). – P. 1-12.
2. Vygotsky L.S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Harvard University Press, 1978.
3. Baumrind D. The influence of parenting style on adolescent competence and substance use. Journal of Early Adolescence, 1991, 11(1). – P. 56-95.
4. Steinberg L. We know some things: Parent–adolescent relationships in retrospect and prospect. // Journal of Research on Adolescence, 2001, 11(1). – P. 1-19.
5. Steinberg L. Adolescence (11th ed.). – McGraw-Hill Education, 2017.
6. Greenfield P.M. Technology and informal education: What is being learned, how we learn, and the implications for education. // Science, 2009, 323(5910). – P. 69-71.